



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urzabayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	



KREATIV YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

UDK: 373.1

Usarova Marg'uba Nazar qizi

Osiyo Texnologiyalar Universiteti Pedagogika kafedrası dotsenti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Orcid: 0009-0007-0373-0665

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini rivojlantirish metodikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga yo'naltiruvchi innovator sifatida faoliyat yuritishi zarur. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, tajriba-sinov ishlari, taqqoslash hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar maxsus ishlab chiqilgan metodika asosida tashkil etilgan innovatsion faoliyat o'qituvchilarda kreativ fikrlash, pedagogik moslashuvchanlik va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Taklif etilgan metodika bosqichma-bosqich, tizimli va refleksiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kreativ yondashuv, innovatsion faoliyat, pedagogik innovatsiya, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, kreativ fikrlash, divergent tafakkur, refleksiv faoliyat, pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, raqamli ta'lim, dizayn-fikrlash, STEAM-yondashuvi, metodik model, tajriba-sinov ishlari, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article substantiates the scientific-theoretical and practical foundations of a methodology for developing teachers' innovative activity in shaping a creative approach within the educational process. In the modern education system, a teacher should act not only as a transmitter of knowledge but also as an innovator who fosters students' creative thinking and guides them toward independent decision-making in problem-based situations. The study employed pedagogical observation, questionnaires, experimental testing, comparative analysis, and statistical methods. The results demonstrate that innovative activity organized on the basis of a specially designed methodology significantly enhances teachers' creative thinking, pedagogical flexibility, and effective use of modern technologies. The proposed methodology is structured on a step-by-step, systematic, and reflective approach, contributing to the improvement of educational effectiveness.

Key words: creative approach, innovative activity, pedagogical innovation, professional competence of a teacher, creative thinking, divergent thinking, reflective activity, pedagogical technologies, interactive methods, digital education, design-thinking, STEAM-approach, methodological model, experimental work, educational effectiveness.

Аннотация: В статье научно-теоретически и практически обоснована методика развития инновационной деятельности учителя при формировании креативного подхода в образовательном процессе. В современной системе образования учитель выступает не только как источник знаний, но и как новатор, развивающий творческое мышление учащихся и направляющий их к самостоятельному принятию решений в проблемных ситуациях. В ходе исследования использованы методы педагогического наблюдения, анкетирования, опытно-экспериментальной работы, сравнительного и статистического анализа. Полученные результаты показали, что инновационная деятельность, организованная на основе специально разработанной методики, способствует значительному развитию креативного мышления, педагогической гибкости и навыков эффективного использования современных технологий. Предлагаемая методика построена на поэтапном, системном и рефлексивном подходе и направлена на повышение эффективности образования.

Ключевые слова: креативный подход, инновационная деятельность, педагогическая инновация, профессиональная компетентность учителя, креативное мышление, дивергентное мышление, рефлексивная деятельность, педагогические технологии, интерактивные методы, цифровое образование, дизайн-мышление, STEAM-подход, методическая модель, опытно-экспериментальная работа, эффективность образования.



KIRISH

Zamonaviy globallashuv jarayoni, raqamli transformatsiya va axborot oqimining misli ko'rilmagan darajada tezlashuvi ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi, murakkab va ko'p qirrali talablarni qo'yimoqda. XXI asr sharoitida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, mehnat bozori dinamikasi hamda texnologik innovatsiyalar tezligi ta'lim mazmuni va shakllarini tubdan yangilashni taqozo etadi. Endilikda ta'lim jarayonida faqat tayyor bilimlarni uzatish va ularni qayta takrorlashga asoslangan an'anaviy reproduktiv model yetarli emas. Bunday yondashuv o'quvchini passiv qabul qiluvchi subyekt sifatida shakllantiradi va u real hayotdagi noan'anaviy muammolarni hal qilishga yetarlicha tayyor bo'la olmaydi. Shu bois ta'lim amaliyotida kreativ va innovatsion yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Kreativlik – bu shaxsning mavjud bilim va tajribaga tayanib, yangicha g'oya, noodatiy yechim va original mahsulotlar yaratish qobiliyatidir. U faqat tasavvur yoki fantaziya emas, balki muammoni turli nuqtai nazardan ko'ra olish, muqobil variantlarni ishlab chiqish, stereotiplardan voz kechish va moslashuvchan fikrlashni o'z ichiga olgan murakkab intellektual jarayondir. Ta'lim jarayonida kreativlik o'z-o'zidan shakllanmaydi; u pedagogning maqsadli va innovatsion faoliyati orqali rivojlanadi.

Innovatsion faoliyat o'qituvchining pedagogik jarayonga yangilik kiritishi, darsni tashkil etishda interaktiv va muammoli metodlardan foydalanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mazmunli integratsiyalashi, o'quvchini faol, mustaqil va hamkorlikka tayyor subyektga aylantirishi bilan tavsiflanadi. Bunday faoliyat natijasida ta'lim muhiti ijodiy izlanish, tajriba o'tkazish va refleksiya uchun qulay maydonga aylanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologik nuqtai nazardan kreativlik fenomeni ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, J. P. Guilford kreativ fikrlashni divergent tafakkur bilan bog'lab, insonning bir muammoga nisbatan ko'plab, turlicha va noodatiy javoblar bera olish qobiliyatini kreativlikning muhim ko'rsatkichi sifatida asoslab bergan. Uning fikricha, divergent fikrlash tezlik, moslashuvchanlik, originallik va tafsilotlarga boylik kabi mezonlar orqali namoyon bo'ladi. Bu yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilarga yagona to'g'ri javobni topish emas, balki turli ehtimoliy variantlarni ishlab chiqish imkonini beruvchi topshiriqlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, E. P. Torrance kreativlikni empirik jihatdan o'lchash metodikasini ishlab chiqib, kreativ fikrlashni aniqlash va rivojlantirishning amaliy mexanizmlarini taklif etgan. Torrance testlari orqali shaxsning ijodiy salohiyatini baholash, uning kuchli va rivojlantirishga muhtoj tomonlarini aniqlash mumkinligi ta'lim amaliyotida keng qo'llanilmoqda.

Pedagogik nuqtai nazardan esa John Dewey ta'limni hayot bilan bog'lash, tajribaviy o'qitish va muammoli vaziyatlar asosida bilim hosil qilish g'oyasini ilgari surgan. Uning konsepsiyasiga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki faol izlanish, tajriba va muhokama jarayonida o'zlashtiradi. Bu esa o'qituvchidan innovatsion yondashuvni, ya'ni darsni muammoli savollar, loyihaviy faoliyat, tadqiqot topshiriqlari va hamkorlikdagi o'qitish metodlari asosida tashkil etishni talab etadi.

Shu jihatdan qaraganda, kreativlik va innovatsion faoliyat o'zaro uzviy bog'liq tushunchalardir: innovatsion pedagogik muhit kreativ fikrlashni rag'batlantiradi, kreativ fikrlash esa yangi pedagogik g'oyalar va metodlarni yuzaga keltiradi. Zamonaviy ta'limda o'qituvchi bilim manbai emas, balki fasilitator, yo'naltiruvchi va hamkor sifatida namoyon bo'ladi. U o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, savol qo'yishga, tajriba o'tkazishga va xatolardan saboq chiqarishga undaydi. Natijada ta'lim jarayoni reproduktiv emas, balki konstruktiv va ijodiy xarakter kasb etadi. Bu esa nafaqat o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga, balki ularning ijtimoiy faolligi, kommunikativ kompetensiyasi va hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarining shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimining barqaror rivoji o'qituvchining innovatsion faoliyati va uning asosida shakllanadigan kreativ yondashuv bilan chambarchas bog'liqdir.

Avtofokus metodi – o'quvchilarning darsga bo'lgan e'tiborini oshiruvchi hamda proaktivligini shakllantiruvchi metod hisoblanadi. Mavzuning mohiyatini yaxshiroq va kengroq anglatish uchun ikki xil – qizil va ko'k rangdagi kartochkalar hamda mavzu yuzasidan tayyorlangan tezkor savollar kerak bo'ladi. Dars boshlanishidan avval kartochkalar o'quvchilarga tarqatiladi va ularga diqqatli bo'lishlari kerakligi aytiladi. To'satdan yangi mavzu yuzasidan savollar beriladi. Agar "qizil" deyilsa – qizil rangdagi, "ko'k" deyilsa – ko'k rangdagi kartochka ko'targan o'quvchilar javob berishadi ^[6] (Kreativ pedagogika kursida o'qib olingan).

Qarmoq metodi – o'quvchilarni o'ylashga, fikrlashga va faollikka chorlovchi metoddir. Yangi mavzuni tushuntirishda o'quvchilarga mantiqiy savollar beriladi, savollarning javoblari esa dars yakunida aytilishi lozim bo'ladi. Javobni eshitish uchun o'quvchilardan faol bo'lish talab etiladi. O'quvchilar savol javobiga qiziqishi sabab, o'zlari bilmagan holda "qarmoqqa ilinadi" va shu orqali dars samaradorligiga erishiladi ^[6] (Kreativ pedagogika kursida o'qib olingan).

Kognitiv fikrlash metodi – fan doirasida o'quvchilarda piktografik tasavvur imkoniyatlarini kashf etishga yordam beradi, ularda tasavvur qilish, ijod qilish va o'z fikrini erkin bayon etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Metodni amalga oshirish uchun mavzu doirasida turli voqealar aks etgan suratlar ko'rsatiladi. O'quvchilarga suratlar tarqatiladi hamda suratga mos hikoya yoki matn tuzish topshirig'i beriladi. Bu metod orqali o'quvchining faolligi oshadi, og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi.

"10 ta dalil" metodi asosan o'quvchilarning mantiqiy fikrlash doirasini rivojlantirishga, biror matn bo'yicha o'z fikrini dalillar asosida bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishga, matnni tushunish va tahlil qila olishga o'rgatadi. Bu metoddan 3-sinf dan boshlab foydalanish mumkin. O'quvchilarda mavzuga oid dalillarni topish va ayta olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Dastlab 10 ta emas, 3–4 ta dalil keltirish topshirig'i berilishi mumkin. Metodni muntazam qo'llash orqali o'quvchilarda dalillarni to'g'ri keltirish ko'nikmalari rivojlanadi.

Metodni dastlab guruhlarda, keyin individual tartibda qo'llash mumkin. Bu jarayonda bolalar bir-birini qo'llab-quvvatlab, jamoa bo'lib mavzuga oid dalillarni aniqlash imkoniga ega bo'ladi. "10" soni o'rganilayotgan mavzu matniga qarab o'zgartirilishi mumkin.

Masalan, 3-sinf o'qish savodxonligi darsligida berilgan "Toshkentdagi yangi bog'" mavzusi asosida:

Yangi O'zbekiston bog'i vatanimiz mustaqilligining 30-yilligi munosabati bilan bunyod etilgan.

Bog'ning markaziy qismida balandligi 30 metrlik monument bor.

Monument tepasida Humo qushi tasviri mavjud.

Bog' chiroyli va ko'rkam.

Bog' atrofida favvoralar bor.

Bog'da attraksionlar ishlab turibdi.

Bog'da sayyohlarni uchratish mumkin.

Bog'da umumxalq bayramlari va turli tadbirlar o'tkaziladi.

Bog' Toshkent shahrida joylashgan.

Toshkent nomi "Tosh shahar", "Feruza shahar" degan ma'nolarni bildiradi.

Yangi o'rganilgan so'zlarni muayyan guruhlariga ajratish ko'nikmalarini shakllantirish. So'zlarni guruhlariga ajratish har doim soha mutaxassislarini qiziqitirib kelgan masalalardandir¹. Guruhlarga ajratish so'z tadqiqini birmuncha osonlashtiradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun so'zlarning muayyan turkumlarga ajratilishi haqida dastlabki tushunchalar beriladi, albatta. Masalan, osmon, daftar, kitob kabi so'zlarning ot, qizil, yaxshi, odobli so'zlarining sifat, yugurmoq, aytmoq, so'ramoq kabi so'zlarning fe'l turkumiga mansub ekanligi haqidagi ma'lumotlar bolaning xotirasida ularning tizimli joylashishiga yordam beradi. So'zlarni turkumlarga ajratish haqidagi umumiy fikrlar ilk sinflardan oq boshlansa-da, aynan so'z turkumlari va ularning xususiyatlarini batafsil o'rganish 4-sinf dan boshlab o'rganila boshlanadi². Aynan shu sinf dan boshlab o'quvchi ot, sifat, son, fe'l kabi mustaqil so'z turkumlarini chuqurroq o'rganishi rejalashtirilgan.

Ta'kidlab o'tish joizki, kreativ yondashuvni shakllantirish metodikasi tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishadi. Bunda diagnostika, rejalashtirish, amaliy tatbiq etish va refleksiya bosqichlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'z faoliyatini muntazam tahlil qilib borishi, yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o'tkazishi va ularni ta'lim jarayoniga moslashtirishi lozim.

Kreativ yondashuv o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki u o'qituvchining innovatsion tafakkuri, metodik savodxonligi va pedagogik mahorati asosida rivojlanadi. Shu bois o'qituvchining innovatsion faoliyati – kreativ ta'lim muhiti yaratilishining asosiy shartidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar kompleks yondashuv asosida to'plandi. Avvalo, pedagogik kuzatuv metodi orqali o'qituvchilarning innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni, dars tashkil etish uslublari va interfaol metodlardan foydalanish darajasi muntazam monitoring qilindi. So'rovnoma va yarim tuzilgan intervyular yordamida o'qituvchilarning kreativ yondashuvga munosabati, refleksiv ko'nikmalari hamda innovatsion kompetentligi aniqlashtirildi. Tajriba-sinov ishlari doirasida eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirilib, maxsus ishlab chiqilgan metodika amaliyotga joriy etildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va matematik-statistik usullar asosida qayta ishlanib, natijalarning ishonchlilik darajasi aniqlashtirildi. Shuningdek, diagnostik mezonlar asosida kreativ fikrlash ko'rsatkichlarining dinamikasi baholandi hamda tajriba yakuniy natijalari umumlashtirildi.

¹ Sharipov F., Mamatova M. So'zlarning turkumlarga ajratilishi // Science and innovation, 2022, Volume 1, Issue 7. – P.1535-1538.

² Ikromova R. va boshq. Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 160 b.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, innovatsion faoliyat quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: pedagogik yangiliklarga ochiqlik, refleksiv tahlil qobiliyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, interfaol metodlarni qo'llash, muammoli vaziyatlar yaratish va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish. Ushbu jihatlar o'qituvchining kasbiy kompetentligini oshiradi hamda ta'lim jarayonini reproduktiv modeldan kreativ modelga o'tkazishga xizmat qiladi.

Nazariy tahlillar va amaliy kuzatishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilar o'quvchilarda ijodiy tafakkur, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmasi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va kommunikativ kompetensiyalarni samarali rivojlantira oladi. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga, o'quvchilarning intellektual salohiyati hamda ijtimoiy faolligining kuchayishiga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kreativ yondashuvni shakllantirish o'qituvchining innovatsion faoliyatini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishga bevosita bog'liq. Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagog innovator, tadqiqotchi va ijodkor sifatida faoliyat yuritishi zarur. Faqat shundagina ta'lim jarayoni samarali, mazmunli va raqobatbardosh bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda bir qancha tavsiyaviy fikrlarni keltirib o'tishni joiz topdik:

1. O'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish maqsadida malaka oshirish kurslari va seminar-treninglarni kreativ metodlar asosida tashkil etish lozim.
2. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, loyihaviy ta'lim, muammoli o'qitish, STEAM-yondashuvi kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan tizimli foydalanish tavsiya etiladi.
3. O'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida har bir darsdan so'ng o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash mexanizmini joriy etish zarur.
4. Ta'lim muassasalarida innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va metodik banklar tashkil etish maqsadga muvofiq.
5. O'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun ochiq savollar, ijodiy topshiriqlar, integrativ loyihalar va tadqiqot elementlariga asoslangan mashg'ulotlarni ko'paytirish lozim.
6. Raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish, sun'iy intellekt vositalarini pedagogik maqsadga muvofiq tatbiq etish o'qituvchining innovatsion faoliyatini kuchaytiradi.
7. Kreativ yondashuv samaradorligini aniqlash uchun monitoring va diagnostika mezonlarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, o'qituvchining innovatsion faoliyatini tizimli rivojlantirish orqali ta'lim jarayonida kreativ muhitni shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev Ergash G'oziyevich. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2017-yil.
2. Tolipov O'ktam Qodirovich, Usmonboyeva Muhayo Hasanovna. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019-yil.
3. Muslimov Nematjon Alimuhamedovich. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Tafakkur, 2020-yil.
4. Yuldashev Juma Yuldashevich. Ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021-yil.
5. Yo'ldoshev Jo'rabek Yo'ldoshevich. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan, 2016-yil.
6. Qurbonov Shavkat Abdurahmonovich. Ta'lim menejmenti. – Toshkent: Sharq, 2018-yil.
7. Ochilov Muhiddin. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2015-yil.
8. Ishmuhamedov Rustam Jo'rayevich. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018-yil.
9. Xudoyberdiyev Erkin. Kreativ pedagogika asoslari. – Toshkent: Universitet, 2022-yil.
10. Tolipov O'. Q. O'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari // Xalq ta'limi jurnali. – Toshkent, 2020-yil. – № 3. – B. 15–21.
11. Muslimov N. A. Innovatsion faoliyat – pedagog kasbiy taraqqiyotining muhim omili // Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2019-yil. – № 2. – B. 8–14.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.